

✓

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**“XAVFSIZ MAXSULOT ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI 1,2”  
FANINING**

**O'QUV DASTUR**

Bilim sohasi:	700000 – Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lim sohasi:	720000 – Ishlab chiqarish texnologiyasi
Ta'lim yo'naliishi (mutaxassisligi) kodi va nomi:	60720100-Oziq-ovqat texnologiyasi (oziq-ovqat xavfsizligi)

Urganch-2024

## FAN TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Fan / modul kodi B54SPMT B66SPMT		O'quv yili 2024-2025	Semestr 5-6	ECTS – Kreditlar 7	
Fan/modul turi Ixtisoslik fanlari		O'qitish tili O'zbek Rus	Haftadagi dars soatlari 6		
	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ishlar (soat)	Jami (soat)	
1.	Xavfsiz maxsulot ishlab chiqarish texnologiyasi 1,2	90	120	210	
2.	<b>I. Fanning mazmuni</b> <b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - talabalarga oziq-ovqat xom ashyosi. yarim tayyor mahsulotlarning va barcha qo'shimchalarining tarkibini atroflicha o'rganish: mahsulotlarda sodir bo'ladicgan temperatura, biologik, kimyoviy ta'sirlar natijasidagi o'zgarishlarni o'rganish. mahsulotlarni xavfsizligini ta'minlab beruvchi, texnologik, medik-toksikologik va standart ko'rsatkichlarini nazorat qilish (kontaminantlar) jarayonlarini va nazorat uslublarini o'rgatishdan iborat. <b>Fanning vazifasi</b> oziq-ovqat mahsulotlarini ilmiy material texnik bazaga asoslangan holda ishlab chiqarish va xavfsizligini nazariy sohasida chuqur kompleks bilim berishdan iboratdir. Ushbu bilimlar majmuasi quyidagilardan iborat: oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarishda xom ashyoni. yarimfabrikatlarni, turli oziq-ovqat qo'shimchalarini medik-toksikologik, standart ko'rsatkichlarini nazorat qilish va texnologik jarayonlarni reglamentda belgilangan talablar asosida tashkil etish bo'yicha nazariy va amaliy berishdir. Shu bilan birga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, sohadagi o'zgarishlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakillantirish, talimiga oid qonunlarni mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabati shakillantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish. Oliy ta'llim tizimi me'yoriy hujjatlari, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining tashkil etilishi, oliy ta'llim texnologiyalari va interfaol ta'llim usullarini bilish; oziq-ovqat xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha fanlar tizimi va kadrlar buyurtmachilarining talablarini o'rgatishdir.				

## **II. Asosiy nazariy qism**

### **II.I. Fanning tarkibiga quyidagi ma'ruza mavzular kiradi**

#### **1-mavzu. Oziq-ovqatdagi potentsial xavfli moddalarning sinflanishi va ularni ifloslanishining asosiy yo'llari**

Oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi, sifati, fizik xususiyatlari. Inson salomatligiga xavf tug'diruvchi komponentlar, ularning xom ashyodagi manbai. Oziq-ovqatdagi tabiiy komponentlar va ularning inson organizmiga ta'siri. Oziq-ovqatdagi genetik modifitsirlangan manbalari xavfsizligi

#### **2-mavzu. Oziq-ovqat qo'shimchalarini xavfsizligini baholash va ularni qo'llashdagi nazorat.**

Oziq-ovqat qo'shimchalarini qo'llashdagi gigienik nazorat. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini baholash uslubiyoti va gigienik me'yorlash printsiplari.

#### **3-mavzu. Oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlarining radiatsion xavfsizlik asoslari.**

Radiohimoyaviy ovqatlanishning asosiy tamoyillari. Radiatsion xavfsizlikni ta'minlashning me'yoriy-huquqiy bazasi.

#### **4-mavzu. Sintetik oziq-ovqat mahsulotlari va qadoqlash-o'rash materiallari zarari, ularni xavfsizlantirish yo'llari.**

Sintetik oziq-ovqat mahsulotlari. Qadoqlash - o'rash materiallari zarari va ulami xavfsizlantirish yo'llari.

#### **5-mavzu. Qishloq xo'jalik xom ashyosini saqlash va qayta ishslashning nazariy asoslari**

Qishloq xo'jalik xom ashyosini saqlash va qayta ishslash. Texnologiya asosida birlamchi ishlov berish va chuqur qayta ishslash.

#### **6-mavzu. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalari va begona moddalarni kamaytirishning texnologik usullari**

O'simlik moylari ishlab chiqarish, margarin, ba'zi konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari, go'sht-sut mahsulotlari, sharobchilik, don mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalari.

Oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlaridagi pestisidlarni qoldiq. azot birikmalari miqdorlarini kamaytirishning texnologik usullari. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligining mikrobiologik nazorati.

#### **7-mavzu. Go'sht sanoati sohasini rivojlanishi. Go'sht mahsulotlarini ahamiyati**

O'zbekistonda go'sht kombinatlari va go'shtni qayta ishslash zavodlari mavjudligi go'sht mahsulotlarini sifati, guruhlari. Go'sht va go'sht mahsulotlarini odam organizmi uchun ahamiyati. Tehnologik jarayonlar haqida tushunchalar. Texnologik yo'qotishlar.

#### **8-mavzu. Go'shtning morfologik tuzilishi**

Qoramol, cho'chqa va mayda mollar. Qabul qilish va semizligini aniqlash. Go'shtning tashqi alomatlari, kimyoviy tuzilishi. Go'shtning asosiy fizik konstantalari va tovar tavsifi. Mollarni tashish va tashish vositlariga bo'lgan talablar. Yirik xayvonlarni boqish kompleksi sharoitida etishtirilgan chorva mollari hususylari. Chorva mollarini qabul qilish va ushlab turish sharoitlari. Topshirish-qabul qilish sistemasi. Go'shtni organoleptik ko'rsatkichlari. Go'sht kategoriyalari. Ozuqaviy qiymati. Muskul to'qimasi, birlashtiruvchi to'qima, yog' to'qimasi, suyak to'qimasi.

#### **9-mavzu. Qoramol, yirik va mavda mollarni so'yish texnologik sxemasi**

Mollarni xushsizlantirish usullari. Qonsizlantirish, teri shilish va mollarning ichki a'zolarini ajratib olish. Nimtalarga bo'lish, tozalash, ko'rikdan o'tkazib muxrlash. Mollarga ishlov berishda veterinar-sanitar nazorati. Mollarni so'yish va nimtalash tehnologiyasi, hushsizlantirish. Mehanik ta'sir ko'rsatib hushsizlantirish. Elektr toki bilan hushsizlantirish. Cho'chqalarни gaz aralashmasida hushsizlantirish. Qonsizlantrish va ozuqaviy qon yig'ish. Teri shilish va ichki a'zolarini ajratib olish.

#### **10-mavzu. Submahsulotlar**

Submahsulotlari sinflarga bo'llinishi va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatilishi. Go'sht-suyakli submahsulotlariga ishlov berish. Endokrin-ferment va maxsus hom ashyoni yig'ish. Mol oyog'i va cho'chqa oyog'iga ishlov berish, kalla, miya, til va liver va boshqalarga ishlov berish. Submahsulotlarni saqlash.

#### **11-mavzu. Go'sht va go'sht mahsulotlariga past haroratning konservlashda ta'siri**

Sovutish, sovutilgan go'sht va go'sht mahsulotlarini saqlash. Suvni fizik-kimyoviy hususylari. Mikrobiologiya, avtomatik jarayonlar. Sovutish sharoitlari. Saqlash, yarim yahlatish, muzlatish sharoitlari va saqlash.

#### **12-mavzu. Kolbasa mahsulotlari uchun homashyo va materiallar. Tuzlovchi materiallar, texnologik chizmalar**

Kolbasa mahsuloti assortimenti. Homashyo va yordamchi materialarga qo'yiladigan talablar. Pishirilgan kolbasa tayyorlash texnologik chizmalar. Sosiska va sardelka tayyorlash tehnologik chizmalar. Yarim dudlangan va hom dudlangan kolbasalar ishlab chiqarish texnologik chizmasi. Tuzlangan sho'rtang mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik chizmasi.

#### **13-mavzu. Kolbasa ishlab chiqarishdagi asosiy jarayonlar. Texnologiya. Tayyor mahsulotga talablar**

Bo'laklash. Go'shtni suyakdan ajratish, parda va tog'aylardan tozalash. Go'shtni tuzlash. Mehanik ta'sir ko'rsatish. Go'sht rangini turg'unlashtirish (barqarorlashtirish). Qiyma farsh tayyorlash. Shpritslash va shakl berish. Kolbasa mahsulotlarini tindirish. Qovurish. Issiqqlik bilan ishlov berish. Sovutish. Quritish texnikasi. Saqlash.

**14-mavzu. Dudlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish. Sho'rttang go'sht mahsulotlarini tuzlash texnologiyasi**

Dudlangan kolbasa mahsulotlari assortimenti va texnologik chizmasi. Dudlash. Pishirilgan kolbasalarni issiqligida dudlash, hom dudlangan kolbasalar, yarim dudlangan xamda pishirib dudlangan kolbasalarni dudlash. Donali mahsulotlar sho'rttang go'sht mahsulotlarini tuzlash texnologiyasi.

**15-mavzu. Xayvon yog'lari**

Yog'larning asosiy fizik-kimyoviy xossalari. Yog' hom ashylari. Suyakdan yog' olish texnologiyasi. Texnik yog'lar va ozuqa mahsulotlar assortimenti, ularga qo'yiladigan talablar.

**16-mavzu. Sut va sut mahsulotlari umumiy texnologiyasi**

Sutning ozuqaviv qiymati. Tarkibi, hossalari va nuqsonlari. Sutga dastlabki ishlov berish. Sutga mehanik ishlov berish. Sutga issiqlik yordamida ishlov berish. Achitqi texnologiyasi.

**17-mavzu. Sut, nordon sut mahsulotlari va morojeno (muzqaymoq) texnologiyasi**

Pasterlangan va sterillangan sut texnologiyasi. Parhezli nordon sut ichimlik mahsulotlari texnologiyasi. Tvorog, tvorog mahsulotlari va smetana texnologivasi. Morojeno turlari. Texnologik jarayonlar turlari va ularning farqi. Morojeno ishlab chiqarish korxonalari uchun zarur homashyo va material turlari. Retseptura tuzish ahamiyati va yo'llari

**18-mavzu. Konservalangan sut mahsulotlari texnologiyasi**

Konservalash printsiplari va usullari. Konservalangan sut mahsulotlari texnologiyasini umumiy jihatlari. Qandli (shakar) sut konservalari. Qandsiz sut konservalari. Konservalangan sut mahsulotlari va quruq sut nuqsonlari.

**19-mavzu. Sariyog' texnologiyasi**

Sariyog' klassifikatsiyasi (turlari), ishlab chiqarish usullari va texnologik tizimlari. Sut va qaymoq sifatiga qo'yiladigan talablar va ularni sariyog' ishlab chiqarishga tayyorlash. Qaymojni kuvalash yo'l bilan sariyog' olish usuli. Yuqori yog'lilik qaymoqqa ishlov berish yo'l bilan sariyog' olish usuli. Xar hil sariyog' turlarini ishlab chiqarish usullari mohiyati (osobennosti). Sariyog'ni qadoqlash, tashish va saqlash. Sariyog' nuqsonlari. Qizdirilgan yog' ishlab chiqarish. Qo'shimcha mahsulotlar yordamida ishlab chiqarilgan sariyog' texnologiyasi. Qadoqlash va saqlash.

**20-mavzu. Pishloq texnologiyasi**

Pishloq klassifikatsiyasi va texnologiyasining umumiy shemasi. Pishloq ishlab chiqarishda sut sifatiga quyiladigan talablar. Sutni qayta ishlashga tayyorlash. Sutning (quyilishi) lahta xosil qilishi. Lahtaga (quyqaga) ishlov berish, qoliplash (formovanie) va pishloqni presslash. Pishloqni tuzlash. Pishloqni etiltirish. Etiltirish davrida pishloqqa ishlov berish va realizatsiyaga

tayyorlash. Tayyor pishloq hisobi. Asosiy guruh natural pishloqlari texnologiyasi. Eritilgan pishioqlar texnologiyasi. Pishloq nuqsonlari va ulami yo'qotish usullari.

#### **21-mavzu. Ikkilamchi hom ashyo va uni qayta ishlash**

Sut oqsili, kazein va kazeinatlar texnologiyasi. Sut qandi, quyultiriigan va quritilgan sut zardobi texnologiyasi. Texnologik uskuna va taralami yuvish va dezinfektsiya qilish. Texnologik jarayonlarni progressiv yomalishlari. Yogurt ishlab chiqarish. Yangi qadoqlash turlari. Ikkilamchi homashyo. Undan samarador foydalanish yo'llari.

#### **22-mavzu. Mahsulotlarni qayta ishlashning nazariy asoslari**

Oziq-ovqat mahsulotlarining organizm uchun ahamiyati. Oziq- ovqat mahsulotlarini sinflash. Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymati. Xom ashyoni qayta ishlashning mohiyati. Texnologik jarayonning xilma-xilligi va ularni guruhlash. Texnologik jarayonlarni tanlashda xom ashyo turiga bog'liligi.

#### **23-mavzu. Xom ashyoga issiqlik bilan ishlov berish**

Blanshirlash. Meva va sabzavot xom ashyosini yumshatish. Xomashyoni yog'da toblastish va so'ldirish.

#### **24-mavzu. Tayyorlangan konservalarni sterilizatsiyalash**

Termosterilizatsiya. Aseptik sterilizatsiya. Pasterizatsiya.

#### **25-mavzu. Sabzavotdan tayyorlangan gazakbop konservalar**

Gazakbop konservalar haqida tushuncha. «Sabzavot ikraşı» ishlab chiqarish texnologiyasi. «Tomat sousidagi qiyma bilan to'ldirilgan sabzavotlar» konservalari ishlab chiqarish texnologiyasi.

#### **26-mavzu. Sabzavotdan tayyorlangan tabiiy konservalar**

Ko'k no'hot konservalari. Sabzi va lavlagi garnirlari. Konservalangan patissonlar. Tabiiy butun tomat konservalari. SHirin qalampirdan tayyorlangan konservalar.

#### **27-mavzu. Meva va sabzavot marinadlari**

Meva va rezavor meva marinadlari. Sabzavot marinadlari.

#### **28-mavzu. Kontsentrlashgan tomat mahsulotlari**

Tomat pvuresi va uni ishlab chiqarish texnologiyasi.

Tomat sharbati va uni ishlab chiqarish texnologiyasi.

Tomat-pasta va uni ishlab chiqarish texnologiyasi.

#### **29-mavzu. Shakar qo'shib tayyorlangan meva konservalar**

Kompotlar. Jemlar. Konfitvur va povidlo. Murabbolar. Tsukatlar

#### **30-mavzu. Meva, rezavor mevalar va sabzavotlar sharbatlari**

Olma sharbati va kontsentratli ishlab chiqarish texnologiyasi. Uzum sharbati va kontsentratli ishlab chiqarish texnologiyasi. Etli or'ik sharbati ishlab chiqarish texnologiyasi. Anor sharbati va kontsentratli ishlab chiqarish texnologiyasi. Qulupnav sharbati ishlab chiqarish texnologiyasi.

Sabzi sharbati va kontsentrati ishlab chiqarish texnologiyasi. Lavlagi sharbati ishlab chiqarish texnologiyasi. Oshqovoq sharbati ishlab chiqarish texnologiyasi.

Ma'ruza mashg'uotlari modul tizimida va multimedya qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

### **III. Amaliy mashg'uotlar bo'yicha ko'rsatma va tafsiyalar**

1. Dudlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish.
2. Shorttang go'sht mahsulotlarini tuzlash texnologiyasi
3. Pasterlangan va sterillangan sut texnologiyasi.
4. Parhezli nordon sut ichimlik mahsulotlari texnologiyasi.
5. Tvorog, tvorog mahsulotlari va smetana texnologiyasi
6. Ikkilamchi hom ashyo va uni qayta ishslash
7. Shakar qo'shib tayyorlangan meva konservalar
8. Hammabop konservalar ishlab chiqarish texnologiyasi
9. Bolalar uchun mo'ljallangan ovqatlar va baliq konservalari
10. Bankali go'sht konservalariga tegishli standartlarda xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash
11. Kolbasa mahsulotlariga tegishli standartlarda xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash
12. O'simlik yog' moy mahsulotlariga tegishli standartlarda xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash
13. Margarin mahsulotlariga tegishli standartlarda xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash
14. Non mahsulotlariga tegishli standartlarda xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash
15. Sut mahsulotlariga tegishli tibbiy-toksikologik ko'rsatkichlarini aniqlash
16. Non mahsulotlariga tegishli tibbiy-toksikologik ko'rsatkichlarini aniqlash
17. Alkogolli va alkogolsiz ichimliklarga tegishli tibbiy- toksikologik ko'rsatkichlarini aniqlash

### **IV. Laboratoriya mashg'uotlari**

1. Go'sht mahsulotlarining tibbiy-toksikologik ko'rsatkichlarining laboratoriya tahlilini qilish
2. Konservalangan oziq-ovqat mahsulotlarining tibbiy-toksikologik ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslublari
3. O'simlik yog' - moy mahsulotlarining xavfsizlik standart ko'rsatkichlardan: kislota sonini aniqlashning laboratoriya uslubi
4. Margarin mahsulotlarining xavfsizlik standart talablari: yog'ning rangini aniqlashning laboratoriva uslub

5. Alkogolli va alkogolsiz ichimliklar tibbiy-toksikologik ko'rsatkichlarini: sivush yog'larini aniqlashning laboratoriya uslubi
6. Sutdagi soda va kraxmalning miqdorini aniqlash
7. Sut mahsulotlarni xavfsizlik standart talablar: kislotaliligini aniqlash
8. Non mahsulotlarining xavfsizlik standart talablar: kartofel kasallik virusini aniqlash
9. Tabiiy butun pomidor konservasini tayyorlash va sifatini aniqlash
10. Meva va sabzavotlardan marinadlar tayyorlash va uning sifatini baholashni o'rganish
11. 40%-li pomidor pastasi tayyorlash va uning sifatini baholashni o'rganish.
12. Mevalardan kompot tayyorlash texnologiyasini o'rganish.
13. Murabbo tayyorlash va uning sifatini aniqlash
14. Go'shtning yangiligini aniqlash. Muskul to'qimalarining morfologik tuzilishini o'rganish
15. Pishirilgan kolbasa tayyorlash
16. Kolbasa mahsulotlaridagi kraxmal va nitrit miqdorini aniqlash. Kolbasa mahsulotlarida namlikni, osh tuzi miqdorini aniqlash
17. Shahar sut zavodlariga qabul qilinadigan xomashyoning sifatini aniqlash. Sutning sifatini aniqlash metodlarini o'rganish. Tozaligini aniqlash
18. Sut reduktazasini aniqlash (sort). Zichligi, kislotaliligi va yog'liligini aniqlash

#### **V. Mustaqil ishni tashkil etishning shakli**

Talabalarning ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorlanib kelishi va o'tilgan materiyallarni mustaqil o'zlashtirishlari uchun mayjud informatsion uslubiy ta'minot, shu jumladan kafedra o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan ma'ruza matnlari va metodik ko'rsatma va qo'llanmalar har bir talabaga tavsiya etiladi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o'zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy baholashlarda o'z aksini topadi. Shu sababli reyting tizimida mustaqil ishlarga alohida ball ajratilmaydi, ular OB va YaB lar tarkibiga kiritilgan.

Mustaqil ish uchun Xavfsiz mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi fani bo'yicha 5-semestrda 90 soat, 6-semestrda 90 soat ajratilgan.

Labaratoriya mashg'ulotlariga darsliklar, ma'ruza matnlari, belgilangan qo'llanmalardan foydalanish bilan bir qatorda qo'shimcha materiallardan, ya'ni kompyuter animatsiyalari, videoroliklar bilan tanishish, internet materiallaridan foydalanib tayyorgarlik ko'rishlari maqsadga muvofiqdir.

Qoldirilgan darslarni o'zlashtirish uchun talaba dars materiallarini tayyorlab kelishi va o'qituvchining og'zaki suhbatidan o'tishi zarur.

*Mustaqil ishi tavsiya etilgan mavzulari quyidagicha:*

- I. Kontsentrlashgan tomat mahsulotlari

2. Shakar qo'shib tayyorlangan meva konservalar
3. Meva, rezavor mevalar va sabzavotlar sharbatlari
4. Transport vositalari
5. Konserva korxonalarida qo'llaniladigan mexanik qurilmalar va issiqqlik apparatlari
6. Mahsulotlarni idishlarga joylash mashinalari
7. Qadoqlash mashinalari
8. Submahsulotlarga ishlov berish, submahsulotlarini ko'rsatkichlari, ishlatilishi va texnologiyasi
9. Go'sht va go'sht mahsulotlarini sovutish, muzlatish va saqlash
10. Kolbasa mahsulotlari uchun homashyo va materiallar. Tuzlovchi materiallar, texnologik chizmalar
11. Sut sanoati. Sutga mahsulot ishlab chiqarish uchun dastlabki ishlov berish
12. Sut, achitqili sut mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi asoslari
13. Morojenoe (muzqaymoq) ishlab chiqarish texnologiyasi asoslari
14. Quyultirilgan sut mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi asoslari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi

## **VI. Fan bo'yicha kurs loyihasi.**

Kurs loyihasining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi real sharoitlarga mos texnik echimlar qabul qilish va zamonaviy texnika va texnolgiyalarni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir.

Kurs loyihasi mavzulari bevosita ishlab chiqarish korxonalari texnologik jarayonlariga bog'lik holda aniq bir jarayon sharoiti uchun belgilanadi. Kurs loyihasining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20- 30% ko'proq qilib oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga shaxsiy topshiriq beriladi.

Kurs loyihasining ob'ekti sifatida yog'-moy korxonalarida amal qilinayotgan biror bo'lim yoki sexning texnologik tizimi asos qilib olinadi. Har bir jarayon uchun uchun mos keluvchi uskuna yoki transport turi texnik va texnologik asoslangan holda tanlanadi va hisoblanadi.

### **Kurs ishi tavsiya qilinadigan taxminiy mavzular:**

1. 4 tn mol go'sht va choxhqo go'shti mayjudligida sosiska va sardelka ishlab chiqarish liniyasini tashkil etish.
2. Smenada 7 tn cho'chqa go'shti tayyorlash texnologiyasini tashkil etish (sovutish va sonlash).

3. Smenada 8 tn mayda shohli mollarni so'yish sehini tashkil etish (sovutish va sonlash).
4. Sutkasiga 3 tn assortiment dudlangan kolbasa ishlab chiqarish texnologiyasini tashkil etish (assortiment tanlash va miqdorini aniqlash).
5. Smenada 2,5 tn pishirilgan kolbasa ishlab chiqarish sehini tashkil etish (Kolbasa Doktorskaya).
6. Quvvati smenada 1 tn pishirib dudlangan kolbasa ishlab chiqarish tsehini tashkil etish.
7. Quvvati smenada 1,5 tn yarim dudlangan kolbasa ishlab chiqarish texnologik liniyasini tashkil etish (Kolbasa «Krakovskaya»).
8. Smenada 40 tn mol go'shti sovutib saqlaydigan pishirilgan kolbasa ishlab chiqarish tsehini tashkil etish (xamma ko'rsatkichlar norma asosida hisoblanadi).
9. 50 tn go'sht ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan go'sht kombinati kolbasa tsehini loyihalashtirish.
10. Smenasiga 1500 kg yumshoq tvorog ishlab chiqarish texnologik liniyasini loyihalashtirish.
11. Smenasiga 3000 kg sterilizatsiyalangan sutni ishlab chiqarish liniyasini loyihalashtirish.
12. Smenasiga 2000 kg shokoladli qadoqlangan morojeno ishlab chiqarish texnologik liniyasini loyihalashtirish.
13. Smenasiga 4000 kg ryajenka ishlab chiqarish texnologik liniyasini loyihalashtirish.
14. Sutkasiga 2000 kg yog'i 30% li qadoqlangan smetana ishlab chiqarish texnologik liniyasini loyihalashtirish.
15. Smenasiga 2000 kg sariyog' ishlab chiqarish texnologik liniyasini loyihalashtirish.
16. Smenasiga 15000 kg sutga dastlabki ishlov berish texnologik liniyasini loyihalashtirish.
17. Smenasiga 1500 kg yogurt ishlab chiqarish texnologik liniyasini loyihalashtirish.
18. Smenasiga 1500 kg tvorog ishlab chiqarish texnologik liniyasini loyihalashtirish.
19. Smenada unumdorligi 2 t «Shaftoli murabbosi» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;
20. Smenada unumdorligi 3 t «O'rik murabbosi» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;
21. Smenada unumdorligi 5 t «Olma kompoti» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;
22. Smenada unumdoriigi 1 t «Baqlajon ikrasi» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;

	<p>23. Smenada unumdorligi 3 t «Olma jemi» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;</p> <p>24. Smenada unumdorligi 6 t «Uzum sharbati» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;</p> <p>25. Smenada unumdorligi 4 t «Olma sharbati kontsentrati» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;</p> <p>26. Smenada unumdorligi 3 t «Marinadlangan bodring» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;</p> <p>27. Smenada unumdorligi 10 t «Tomat pasta (30%)» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish;</p> <p>28. Smenada unumdorligi 5 t «Tabiiy tomat sharbati» konservalari ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish.</p> <p>29. Smenada 1t xavfsizlik ko'rsatkichlariga javob beruvchi prostavasha ishlab chiqarish texnologik liniyalarini loyihalash.</p> <p>30. Smenada 100 t paxta yog'ini ishqoriy rafinatiya uslubidan foydalangan xolda xavfsizlik ko'rsatgichlariga javob beruvchi mahsulot ishlab chiqarish texnologik liniyalarini loyihalash.</p> <p>31. Smenada 50t xavfsizlik ko'rsatgichlariga javob beruvchi un mahsuloti ishlab chiqarish texnologik liniyalarini loyihalash.</p> <p>32. Smenada 3t xavfsizlik ko'rsatgichlariga javob beruvchi qaymoq ishlab chiqarish texnologik liniyalarini loyihalash.</p> <p>33. Smenada 2t kefir ishlab chiqarish texnologik liniyalarini tashkil etish.</p> <p>34. Smenada 1t xavfsizlik ko'rsatgichlariga javob beruvchi sariyog' ishlab chiqarish texnologik liniyalarini loyihalash.</p> <p>35. Smenada 8 t mayda shoxli mollarni go'shtidan xavfsizlik ko'rsatgichlariga javob beruvchi konserva mahsuloti ishlab chiqarish texnologik liniyalarini loyihalash.</p>
3.	<p><b>VII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalari)</b></p> <p>Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda fan va texnika rivojlanishining o'mi va roli; inson salomatligiga xavf tug'diruvchi komponentlar; mahsulotlari ishlab chiqarishning xavfsiz texnologiyalari; oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymati; oziq-ovqat sanoatida umumiy vazifalami bajarishga mo'ljallangan jihozlar; mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi, uning bosqichlarida bo'llayotgan o'zgarishlar; kimyoviy, fizik-mexanik va bioigik kontaminantlar; qishloq xo'jalik xom ashyosini saqlash va qayta ishlashning nazariy asoslari; xavfsiz ingibitorlar, vitaminlar qand o'rindoshlari, hid va rang beruvchi komponetlar ishlab chiqarish texnologiyasining nazariy asoslari; oziq-</p>

	<p>ovqat sanoatida umumiy va maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan jihozlar; qishloq xo'jalik xom ashyosi va ulardan qayta ishlab tayyorlangan mahsulotlarini qabul qilishda va iste'molchilariga jo'natish tartibi; yordamchi materiallarning sifatini aniqlash; kimyoviy moddalarning toksik xususiyatlari va sinflanishi; oziq-ovqatdagi radioaktiv moddalardan himoyalanishning asosiy printsiplari va inson organizmiga ta'sir etish mexanizmi; biologik xavf-xatar, kimyoviy va fizik xavf-xatarlarning o'zaro munosabati haqida tasavvurga va bilimga ega bo 'lishi;</p> <p>Qishloq xo'jalik xom ashyosini xavfsiz texnologiya asosida birlamchi ishlov berish va chuqr qayta ishlash; sintetik oziq-ovqat mahsulotlari, ularni qadoqlash-o'rash va xavfsizlantirish; oziq-ovqat sanoatida umumiy va maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan jihozlarni tanlash va hisoblash ko'nikmalariga ega bo'lishi;</p> <p>Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish; sertifikatlash va xavfsizlik mezonlarini inobatga olish va nazorat qilish malakasiga ega bo 'lishi kerak</p>
4.	<p><b>VIII. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruzalar;</li> <li>- interfaol keys-studylar;</li> <li>- seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>- guruhlarda ishlash;</li> <li>- taqdimotlarni qilish;</li> <li>- individual loyihibar;</li> </ul>
5.	<p><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, kichik amaliy masalalarni yecha olish, mustaqil ravishda metodlar, strukturalar yaratma olish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha (yozma ishni, test yoki og'zaki shakildagi nazorat) topshirish.</p>
6.	<p><b>X. Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Food safety handbook. Ronald H. Schmidt and Gary E. Rodrick. 2003 by Ajohn wiley &amp;sons publication. Page 805.</li> <li>2. Food science. Fifth edition. Norman N.Potter. Josep H. Hotchkiss. International Thomson Publishing. 1998-p.411.</li> </ol>

3. Г.Н. Крусь. Технология молока и молочных продуктов Учебник, Москва «Колос», 2007.
4. Ismoilov T.A. Sut mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, TKTI bosmaxonasi, 2013. 300 b.
5. Dodaev Z.O. Konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi Darslik T:Noshir, 2009-387 b.
6. Choriyev A.J.Dodaev Q.O. Konserva korxonasi jihozlari. Darslik. Toshkent «O'zbekiston» NMIU, 2010. -192 b.
7. Шепелев А.Ф., Кожухова О.И. Товароведение и экспертиза плодовоошных товаров. Учебник-Ростов-на Дону. Март, 2002-С, 41-56.
8. И.А. Рогов, Н.И.Дунченко и другие. Безопасность Продовольственного сырья и пищевых продуктов. Учебное пособие. Новосибирск, 2007.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz", Toshkent. "O'zbekiston", 2017, 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi" 48 b, T. "O'zbekiston", 2017-yil.
3. Донченко Л.В. Пищевая Безопасность. Учебное пособие. М. 2000 г.
4. Дубцов Г.Г. Товароведение пищевых продуктов. Учебник М. из-во Мастерство,2001 264 с.
5. Normaxmatov R. Tovarshunoslik. Darslik. T.: 2004.
6. В.В. Закревский. Безопасность пищевых продуктов и биологически активных добавок к пище. Практическое руководство по санитарно-эпидемиологическому надзору. СПб.:Гиорд,2004.-280с
7. Чудотворцев И.Г., Яценко О.Б. Экспертиза продуктов пищевой промышленности. Учебное пособие. Из-во ВГУ, Воронеж. 2005.-78 с.
8. Поздняковский В.М. Гигиенические основы питания, безопасность и
9. Экспертиза продовольственных товаров. Учебник. 2- ое изд., испр. и доп. - Новосибирск, 1999. - 448 с.

#### **Axborot manbaalari**

1. <http://www.tan.com.ua>
2. <http://www.cimbria.com>
3. [rvww. twirpx.com](http://www.twirpx.com)
4. [htt://www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz)
5. <http://www.oil.jasko.ru/r2.html>
6. <http://www.sciencedirection.com>
7. [htt://www.cimbria.com](http://www.cimbria.com)
8. [www.twirpx.com](http://www.twirpx.com)

7.	Mazkur o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil ___ - avgustdagি 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun masul:</b>            Samandarov A.I. UrDU, Oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasи katta o'qituvchisi,            t.f.f.d</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  <b>Radjabov M.F.</b> Oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasи, texnika fanlari nomzodi dotsent.  <b>Saparbayeva N.K.</b> Oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasи dotsenti, texnika fanlari nomzodi</p>

Akademik faoliyat va registrator  
departamenti rahbari:

G.R. Matlatipov

Kimyoviy texnologiyalar  
fakultet dekani:

Sh.R. Kurambayev

Oziq-ovqat texnologiyasi  
kafedra mudiri:

M.F. Radjabov

Tuzuvchi:

A.I. Samandarov